

**ROKAMBOL O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TARTIBI
VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o‘g‘li

Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi

To‘xtasinova Rayxongul Avazbek qizi

Bekmirzayeva Gulxayo Mirzohodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Anotatsiya. Maqolada rekombol o‘simligini kelib chiqishi, yashash sharoiti, tarqalishi, marfalogiyasi hamda anatomiyasi va shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz kerakki dorivor o‘simlik bo‘lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e’tiborga ega o‘simliklar ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Rekombol o‘simligi, piyozguldosh oilasi, guli, meva, urug‘, ko‘chat, barg. Botanik nomi. *Allium scorodoprasum L.* Piyozguldoshlar (*Malvaceae*) oilasiga mansub.

Geografik tarqalishi. Rokambol vatani O‘rta Osiyo hisoblanadi. Tabiiy sharoitda Ispaniya va Misrda o‘sishi aniqlangan. Yevropada, Shimoliy Kavkazda, Xitoy, Koreya, Yaponiya, va qisman Rossiyada etishtiriladi. U O‘rta Yer dengizi mamlakatlari - Ispaniya, Turkiya, Gresiya, Misr, Marokashda juda ommalashgan.

Biologiyasi. Rokambol o‘simligi sovuqqa chidamli bo‘lib, $-7-8^{\circ}\text{C}$ gacha bo‘lgan sovuqqa chidaydi. Rokambol ildiz tizimi 0°S o‘sa boshlaydi, $3-5^{\circ}\text{C}$ yaxshi o‘sadi, $6-8^{\circ}\text{C}$ esa niholli unib chiqadi. Pallasining shakllanishi $15-20^{\circ}\text{C}$, pishib etilishi esa $20-25^{\circ}\text{C}$ haroratda kechadi.

Rokambol – piyozguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Rokambol bir nechta nomga ega – piyoz-sarimsoq, ispan yoki misr sarimsog‘i. Uning qalin, go‘shli piyozchalari mavjud bo‘lib, uning zich, keng va cho‘zilgan yashil barglari engil oqpushti qoplama bilan qoplangan. Uning balandligi tuproqqa va o‘sadigan joyiga qarab 80-120 sm ga etishi mumkin.

Rokambolning o‘suv davri 210-245 kun, sarimsoqchasining diametri 6 sm va vazni 50-100 gramm bo‘lib, ayrim hollarda 10 sm va 300 gramm gacha bo‘ladi. Ko‘paytirish usuli. Asosan tishchasidan, ayrim hollarda urug‘i bilan ham ko‘paytiriladi.

Xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi. Rokambolni tishchalari iste’mol qilinadi. Rokambol bir vaqtning o‘zida ham piyoz, ham sarimsoqning ta’mini berib, ovqatlarda piyoz va sarimsoq o‘rnida ishlatish mumkin.

Rokamboldan turli sabzavot ekinlarining konserva mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin, tabobatda – rokambol tarkibidagi kimyoviy

moddalar qonni yaxshi suyultiradi va tomirlarni kengaytiradi. Uni iste'mol qilish qon aylanishni me'yorlashtiradi, tromblar hosil bo'lishini oldini oladi. Uning tarkibida juda ko'plab allitsin moddasi bo'lib, u kuchli antioksidant hisoblanadi. Shuningdek, uning tarkibida germaniy elementi (Ge) bo'lib, u qon tomirlar elastikligini oshiradi. U tabiiy antibiotik hisoblanadi, chunki uning tarkibida sulfidlar mavjud bo'lib, ular stafilokokklarga, dizenteriya va tif qo'zg'atuvchilariga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Uni iste'mol qilish oshqozon-ichak sistemasi ishini yaxshilaydi, chunki u jigardagi muammolar, ich ketishi va kolitlarga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Oshqozon-ichak traktidagi foydali mikroflora balansini buzmaydi.

Respublikamizning oziq-ovqat sanoatida – rokambol to'pgullari pishirilib, dimlab hamda konservalangan holda;

Qayta ishlash sanoatida – turli sabzavotekinlarining konserva mahsulotlarini ishlab chiqarishda;

Tabobatda – rokambol tarkibidagi kimyoviy moddalar qonni yaxshi suyultiradi va tomirlarni kengaytiradi. Uni iste'mol qilish qon aylanishni stabillashtiradi, tromblar hosil bo'lishini oldini oladi. Uning tarkibida juda ko'plab allitsin moddasi bo'lib, u kuchli antioksidant hisoblanadi. Shuningdek, uning tarkibida germaniy elementi bo'lib, u qon tomirlar elastikligini oshiradi. U tabiiy antibiotik hisoblanadi, chunki uning tarkibida sulfidlar mavjud bo'lib, ular stafilokokklarga, dizenteriya va tif qo'zg'atuvchilariga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Uni iste'mol qilish oshqozon-ichak sistemasi ishini yaxshilaydi, chunki u jigardagi muammolar, ich ketishi va kolitlarga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Oshqozon ichak traktidagi foydali mikroflora balansini buzmaydi. Yetishtirish hududi va tuproq-iqlim sharitiga bo'lgan talabi. O'zbekistonning o'tloqi-botqoq va bo'z tuproqli unumdor suv bilan ta'minlangan maydonlarda etishtirishga mos.

1 ga ekin maydonida urug' hajmi va qiymati. Rokambol tishchalari bilan ko'paytirilib, bir gektar maydonga ekish sxemasiga qarab 1300-1500 kg tishchalar sarflanadi. Pallalari yirik va ekish me'yori ortishi bilan hosildorlik ham yuqori bo'ladi. 2-3 qator qilib ekilganda lentalar orasi 50-60 sm, lentlardagi qatorlar orasi 10-15 sm, qatordagi o'simliklar orasi 6-8 sm bo'ladi va chuqurligi 3-4 sm qilinadi. Parvarishlash. Ekiladigan piyozboshchalari yuqori unuvchan, kasalliklardan holi, butun, vazndor bo'lishi zarur. Yerni ekishga tayyorlashda dastlab maydon o'tmishdosh ekin qoldiqlari va begona o'tlardan tozalanadi, chirigan go'ng solinadi. Tuproq 20-25 sm chuqurlikda yumshatiladi, yirik kesaklar maydalangach, yaxshilab tekislanadi va sug'orish egatlari olinadi.

Rokambol kuzda, sentyabr oyi boshlarida ekiladi. Bundan kechiktirib ekilsa, kuzda yaxshi ildiz olishga ulgurmaydi, natijada qishki past haroratdan va turli kasalliklardan zararlanadi.

Rokambolning o'suv davr 210-245 kun bo'lib, avgustda ekilganda kelgusi yili

mayda pishib etiladi.

Parvarishlash ishlari tuproq turiga qarab sarimsoq ekilgan erga bir gektar maydonga sof holda 100-120 kg azot, 100-110 kg fosfor va 50 kg kaliy o'g'iti solinadi. Rokambol ekiladigan erga yangi go'ng solish yaramaydi, chunki bu hosilning etilishini kechiktiradi va u yaxshi saqlanmaydi.

Rokambol kuzda, sovuq tushguncha 1-2 marta sug'oriladi, ko'klam-yozda parvarish qilish: 5-6 marta sug'orish, qator oralarini yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish, chopiq qilish, gulpoyalarini sindirib tashlash, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish va chirindi bilan mulchalash hosilni ancha oshiradi.

Xulosa. Rekombol tabiiy dori vositasi bo'lib, inson qon aylanish sistemasi, qonning normal holatini saqlashga yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Shuni ham alohida takidlab o'tishimiz kerakki qon tomirlarning elastikligi va tromblar hosil bo'lishini oldini olishi tog'risida gap boradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI 2023-yil 26-27-b.

2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.

3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интеграционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.

4. Кимсанов И.Х, Кодиров О.А, Рахимов А.Д, Абдумаликов У.З. Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.